

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI NUTQ NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI O'QISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA FIKRLASH OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Turdalieva Shahlo Husnitudinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Logopediya kafedrasasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda analizatorlarning rivojlanish funktsiyalari va aqliy operatsiyalarning mazmuni yoritilgan, maktabgacha ta'lif muassasalarida o'qish ko'nikmalarini samarali amalga oshirish uchun zarur motivlar va yondashuvlar mazmuni tahlil qilingan. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalardagi birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini tuzatishiga hamda rivojlantirishga qaratilgan ta'lif muhiti bola shaxsining rivojlanish sharti hisoblanadi. Shuni e'tiborga olgan holda ushbu maqolada mutaxassis kasbiy faoliyati jarayonida qo'llashi mumkin bo'lgan texnologiyalardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tarbiyachi, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya instruktor, birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar, logoped, o'qish, yozishni o'zlashtirish.

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ МЫСЛITЕЛЬНЫХ ОПЕРАЦИЙ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ У ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Turdalieva Shahlo Husnitudinovna

Nizamiy, Tashkent State Pedagogical University, teacher of speech therapy department

Аннотация. В данной статье описаны развивающие функции анализаторов и содержание мыслительных операций в развитии навыков чтения у детей с тяжелыми дефектами речи дошкольного возраста, проанализировано содержание мотивов и подходов, необходимых для эффективной реализации навыков чтения в дошкольных образовательных учреждениях. Известно, что образовательная среда, направленная на коррекцию и развитие первичных и вторичных нарушений дошкольников, является условием развития личности ребенка. Учитывая это, в данной статье представлены примеры технологий, которые специалист может использовать в процессе своей профессиональной деятельности.

Ключевые слова: педагог, музыкальный руководитель, инструктор по физкультуре, нарушения первичной и средней степени тяжести, логопед, осваивающий чтение, письмо.

THE CONTENT OF THE DEVELOPMENT OF THINKING OPERATIONS IN THE DEVELOPMENT OF READING SKILLS OF CHILDREN WITH SPEECH DISABILITIES OF PRESCHOOL AGE

Turdalieva Shahlo Husnitudinovna

Nizamiy, Tashkent State Pedagogical University, teacher of speech therapy department

Annotation. This article describes the developing functions of analyzers and the content of mental operations in the development of reading skills in children with severe speech defects, and analyzes the content of motives and approaches necessary for the effective implementation of reading skills in preschool educational institutions. It is known that an educational environment aimed at the correction and development of primary and secondary disorders of preschool children is a condition for the development of the child's personality. Taking this into account, this article presents examples of technologies that a specialist can use in the course of his professional activities.

Key words: teacher, music director, physical education instructor, primary and moderate disabilities, speech therapist, mastering reading and writing.

Kirish. Jahon ta'lif muassasalarida alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalardagi nuqsonlarni bartaraf qilish, maktabgacha yoshdagi og'ir nutq nuqoniga ega bo'lgan bolalarda o'qish ta'limida o'qish shakllantirish uchun ko'nikmasini bevosita amaliy egallash ko'nikmalarini shakllantirishning korrektzion

rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari tafbiq etilgan.

Respublikamizda so'nggi yillarda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy-maʼrifiy jihatdan taraqqiy etishi, ijtimoiy munosabatlarda demokratik hamda insonparvarlik tamoyillarining ustuvor boʼlishiga erishishi yuqori axloqiy sifatlarga ega boʼlgan, muayyan soha boʼyicha nazariy, amaliy bilimlarni puxta oʼzlashtirgan, kasbiy faoliyatda yutuqlarga erisha oladigan kadrlarni tayyorlanishning huquqiy-meʼyoriy asoslari yaratilmoqda.

Taʼlim jarayonida taʼlim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, taʼlim tizimini zamon talablariga moslashtirish, umumiy oʼrtalim muassasalarida darsliklarni yangilash, nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich oʼtish, aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni taʼminlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida matkabgacha taʼlim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning dastlabki oʼqish koʼnikmalarini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish boʼyicha ilmiy tadqiqotlarning samarasi oshadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maktabgacha yoshdagagi bolalarning asosiy faoliyati oʼyin ekanligini hisobga olsak, mashgʼulotlarni shunday tuzish kerakki, yangi materialni oʼrganish, har qanday bilim va koʼnikmalarini egallash nafaqat oʼyin shaklida, balki oʼyining keyingi rivojlanishiga turtki beradi. Mashgʼulotlarda bolalar ular uchun yangi boʼlgan oʼyin harakatlarini oʼzlashtira olishlari, oʼyin syujetining variativligi, tanlangan rollarga muvofiq oʼyinchilarning oʼzaro munosabatlari haqida tasavvurga ega boʼlishlari kerak.

Bolalar faoliyatining asosiy turlarida olingan bilim va shakllangan koʼnikmalardan foydalanish tamoyili. Har bir mashgʼulot shunday tuzilganki, bolalar olgan bilim va koʼnikmalarini oʼyin, ijodiy ishlab chiqarish faoliyati hamda uy-roʼzgʼor ishlarida qoʼllashlari mumkin. Shunday qilib, oʼqish koʼnikmalarini oʼzlashtirishning amaliy mazmuni bolalarga ochib beriladi. Bundan tashqari, bolalar faoliyatining oʼzi boyitiladi, uning rivojlanishi uchun yangi sharoitlar paydo boʼladi, olingan bilimlar mustahkamlanadi, bolalarning mashgʼulotlarda oʼzlashtirgan koʼnikmalarini takomillashadi [6].

Taʼlim vositalari. Taklif etilayotgan texnologiyada asosiy taʼlim vositasi bu oʼyin, birinchi navbatda syujetli rolli va dramatizatsiya oʼyinlari. Foydalaniladigan syujetli rolli oʼyinlar oʼyin qahramoni yordamida hayoliy vaziyatni yaratishni, rollarni taqsimlashni oʼz ichiga oladi, bunda etakchi rol oʼqituvchi tomonidan ovozlashtirilgan oʼyin qahramoniga beriladi. Bolalar oʼyining faol ishtirokchilari sifatida rollarni ham oʼz zimmalariga oladilar va hozirgi vaziyatda oʼz munosabatlarini, tasavvurlarini ifoda etib, syujetning rivojlanishiga taʼssir qilish imkoniyatiga ega boʼladilar [6]. Dramatizatsiya oʼyinida syujetning rivojlanishi ishlatilgan badiiy asarning konturi bilan belgilanadi. Bolalar oʼyinni bir vaqtning oʼzida ham aktyorlar, ham tomoshabinlar sifatida qabul qiladilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Korrektcion va rivojlantiruvchi taʼlim muhiti nafaqat bola shaxsining rivojlanish sharti, balki mutaxassis kasbiy ijodining koʼrsatkichidir, chunki uni modellashtirish va loyihalash pedagogdan chuqr bilim, yuqori professionallik, ijodiy izlanish, tibbiy, psixologik va pedagogik metodikalarning moslashuvchanligini, anʼanaviy va noanʼanaviy texnologiyalarni, bolalar, ularning ota-onalari, tuzatish jarayonini taʼminlaydigan odamlar bilan ishslash qobiliyatini talab qiladi. Atrof-muhit faqat barcha mutaxassislarning birgalikdagi faoliyati natijasida yaratiladi [7].

Biz tashkil etgan oʼzaro hamkorlikning asosiy maqsadi har bir mutaxassisning salohiyatidan foydalanish, pedagogik kollektivning barcha subʼektlarining saʼy-harakatlarini birlashtirish, maktabgacha yoshdagagi bolalarni oʼqishni oʼzlashtirishga tayyorlash ishlarida faoliyatlararo kelishmovchilikni bartaraf etishdir. Yaʼni bolalarda ushbu koʼnikmalarini oʼzlashtirishga tayyor boʼlish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishga kompleks yondashuvni tashkil etish.

Yu.K. Babanskiy kompleks yondashuvning maʼnosini, birinchi navbatda, pedagogning tarbiyaviy va taʼlimiy harakatlari, birinchidan, bolaning shaxsini yaxlit shakllantirishga, ikkinchidan, unga boradigan barcha maqsadli taʼsirlarning ajralmas tizimiga boʼlgan integratsiyaga yoʼnaltiriladi. Bu pedagogik kollektivning aʼzelolari oʼrtasidagi oʼzaro munosabatlarni tashkil etishga boʼlgan transdistsiplinar yondashuv bilan mumkin boʼladi [1].

Lokalova N.P, A.A. Ushakov [2,3] tomonidan miya falaji bor bolalar uchun individual reabilitatsiya dasturini ishlab chiqishda transdistsiplinar yondashuv asoslarni tahlil qilish asosida biz pedagogik tizim subʼektlarining oʼzaro taʼssirini tashkil etish modelini yaratdik.

Transdistsiplinar yondashuvning mohiyati (lot. trans orqali) pedagogik tizim subʼektlari oʼrtasidagi

o'zaro munosabatlarni tashkil etishga, bizning fikrimizcha, jamoaning har bir a'zosiga boshqa mutaxassislarning dasturiy ta'xminotining potentsial imkoniyatidan foydalanish uchun shakllangan funksiya, ko'nikma yoki jarayonga bo'lgan ta'sirni kuchaytirib, uning oldida turgan dasturiy vazifalarni hal qilishga imkon beradigan ishni tashkil etishdan iborat[4,5].

Buning uchun biz o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari tizimini ishlab chiqdik, unda psixologik va pedagogik tadbirlarning metodlari va hajmini tanlash mutaxassislar jamoasi (faol guruh) tomonidan amalga oshirilgan. Bolalar potentsialining birgalikdagi tahlili ularning zarur funksiyalari, ko'nikmalarini va jarayonlarining rivojlanishi bo'yicha maqbul chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishga imkon berdi.

Jamoaga kiritilgan mutaxassislarning davriy yig'ilishlarida faol guruh a'zolarining samaradorligi baholandi, rejalar tuzatildi, ishning oraliq natijalari sarhisob qilindi. Jamoalar soni, ishtirokchilarining soni va profili biz tomonimizdan aniqlangan ish joylari va echimlarni talab qiladigan aniq vazifalar bilan aniqlangan.

Mutaxassislar jamoalari oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun uning koordinatorlari aniqlandi. Har bir faol guruhdagi bu funksiyanı shakllanayotgan jarayonlar va ko'nikmalar sohasidagi eng malakali mutaxassis bajargan, u jamoaning har bir a'zosining ishiga rivojlanish vazifalarini "translyatsiya qilgan", ya'ni o'tkazgan. Koordinatorlarning vazifalariga jamoa a'zolarining dasturiy ta'xminotini tahlil qilish, ish rejasini tuzish, maslahat berish, vazifalarni belgilash va ularning bajarilishini nazorat qilish kiradi. Shunday qilib, tajriba o'tkazilgan barcha mакtabgacha ta'lim muassasalarida mutaxassislar rivojlanishning umumiyligi buzilishi bo'lgan bolalarda o'qishni o'zlashtirishga tayyorlikni shakllantirishga jalgan qilindi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Eshitish, og'zaki nutq, vizual-fazoviy funksiyalar va fikrlash operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha yo'naliishdagi vazifalar logoped, tarbiyachi, psixolog, jismoniy tarbiya instruktori va musiqa rahbari tomonidan frontal va guruhga oid bo'lмаган mashg'ulotlar jarayonida, tartib lahzalari paytida rivojlanayotgan mazmun bilan jamoaviy faoliyatda qatnashish orqali rasm va ganchkorlik darslarida, modellashtirish, qo'l mehnati, ya'ni har bir mutaxassisning rejalashtirilgan darslarida o'qish va yozishni o'zlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish bo'yicha vazifalarni ajratish hisobiga hal qilingan [8].

Jamoa a'zolariga dasturiy ta'xminotni amalga oshirish doirasida qo'yilgan vazifalarni hal qilishga imkon beradigan ish shakllari va metodlarni aytib o'tamiz.

Eshitish funksiyalarini shakllantirish dasturi (nutqqa oid va nutqqa oid bo'lмаган eshitish qobiliyati) logoped, tarbiyachi, psixolog va musiqa rahbari, jismoniy tarbiya bo'yicha instruktor tomonidan muhokama qilingan va ishlab chiqilgan. Jamoada koordinator bo'lib logoped xizmat qildi.

Tarbiyachi, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya bo'yicha instruktor bolalarda eshitish va kontsentratsiyani rivojlantirish vazifalarini hal qildilar (tarbiyachi "Nima shovqin qilmoqda?" o'yini va boshqa o'yinlarda bolalarni qaysi predmet tovush chiqarganini topishga o'rgatadi: qoshiq, qog'oz, stul, koptok va hokazo; musiqa rahbari - bolalarni musiqa asbobini yoki o'ynichoq tovushlarini aniqlashni o'rgatadi; jismoniy tarbiya bo'yicha instruktor - "Agar qarsak chalsam, yugurasiz, agar oyog'imni do'pillatsam, yurasiz" topshirig'ini bajarishni o'rgatadi va hokazo).

Tarbiyachi va musiqa rahbari, jismoniy tarbiya bo'yicha instruktor maktabgacha yoshdag'i bolalarda yo'naliishini aniqlash, tovushning kuchi va balandligini farqlash qobiliyatini shakllantirdilar ("Nima baland va nima past jaranglayapti?", "Qaysi musiqa asbobining ovozi eng baland?", "Nima qilish kerakligini top?", "Past-baland!" o'yinlarida: baland qarsakda - bayroqchani yuqoriga ko'tarish, past qarsakda - bayroqchani pastga tushirish va hokazo).

Logoped va musiqa rahbari ritmnini takrorlashni o'rgatdilar, bolalarda eshitish xotirasini rivojlantirdilar ("Meni qanday taqillatishimni tingla va tugatganidan keyin xuddi shu tarzda taqillat"; "Diqqat bilan tingla - hozir men ikki marta taqillataman. Qachon ko'proq taqillatganimi aniqlashga harakat qil"; "Musiqiy aks-sado" - o'qituvchi zarbli asbobni ma'jum bir ritmda uradi, bola eshitganlarini bir xil ritmda takrorlashi kerak; va hokazo). Logoped maxsus mashqlarda bolalarda fonematik idrokning kamchiliklarini tuzatadi. Tarbiyachi nutq tovushlarini farqlash ko'nikmasini, shu jumladan dastur mashg'ulotlarida logoped tomonidan berilgan vazifalarni birlashtirdi (qo'l mehnati darslarida faoliyatni almashtirish daqiqalarida, masalan: "O'giril, tingla va takrorla: pa-ba-pa, ka-ga-ga"; "Men talaffuz qilayotgan tovushlarni tingla, [R] tovushini eshitganinda qarsak chal" va hokazo), sayrda, tartib lahzalarida mustahkamladi.

Logoped, psixolog, tarbiyachi va musiqa rahbari dastur vazifalarini amalga oshirish jarayonida bolalarda eshitish-nutq xotirasini rivojlantirdilar (masalan, ular turli murakkablikdagi jumlalarni takrorlashni o'rgatdilar).

Vizual-fazoviy funktsiyalarni shakllantirish bo'yicha dastur psixolog, logoped, tarbiyachi va jismoniy tarbiya bo'yicha instruktor tomonidan ishlab chiqilgan. Jamoada koordinator bo'lib psixolog xizmat qildi. Bolalardagi predmetlarning vizual tahlilini rivojlantirish maxsus mashg'ulotlarda psixolog tomonidan; rasm darslarida, bolalarning bo'sh vaqtlarida faoliyatni tashkil qilish jarayonida tarbiyachi tomonidan; mashg'ulotlarni tashkil qilish paytida, mashg'ulotlarda dam olish daqiqalarida logoped tomonidan amalga oshirildi.

Shuningdek, maxsus mashg'ulotlarda psixolog maktabgacha yoshdagi bolalarda vizual diqqat va xotirani rivojlantirdi, jamoaning qolgan mutaxassislari o'zlarining dasturiy ta'minotining potentsial imkoniyatlaridan foydalangan holda o'qish va yozishni o'zlashtirish uchun zarur bo'lган psixik funktsiyalarni shakllantirdilar va mustahkamladilar.

Tarbiyachi - matematik qobiliyatlarni rivojlantirish mashg'ulotlarida, applikatsiya, ganchkorlik, loyihalash mashg'ulotlarida. Jismoniy tarbiya bo'yicha instruktor - maxsus vazifalar jarayonida (masalan, varaqda tasvirlangan ketma-ketlik bilan o'xshash predmetlarni tashkil qilish zarurati bilan estafetalar o'tkazish va boshqalar).

Logoped - nutqning leksik va grammatik tuzilishini rivojlantirish bo'yicha mashqlar jarayonida (masalan, "Nima yo'qoldi?" va boshqa o'yinlarda ot so'z turkumidan nutqda foydalanish ko'nikmasini shakllatirishda, kesma alifboning taqdim etilgan harflari ketma-ketligini qaytadan tiklashda tovush-harf aloqalarini shakllantirish jarayonida). Logoped maxsus mashg'ulotlarda bolalarda harflarni tanib olish va farqlash, ularni tahlil qilish va sintez qilish ko'nikmasini shakllantirdi (deyarli barcha dasturlar bu vazifani nutq buzilishlarini tuzatish dasturiga kiritadi).

Tarbiyachi bu mahoratni mashg'ulotlarda, tartib lahzalarida, bo'sh vaqtlarida amalga oshirib, mustahkamladi. O'zida harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish vazifalari ta'lif tizimining barcha sub'ektlari tomonidan mashg'ulotlarda, bolalar bilan erkin muloqot jarayonida (sayrlarda, tartib daqiqalarida, bo'sh vaqlarda) hal qilindi. Bunday vazifalar (o'z yuzi, tanasi, qo'llarining alohida qismlarining o'z tanasiga va qo'l qismlarining bir-biriga nisbatan nisbiy holatini baholash qobiliyatini rivojlantirishga) har qanday mutaxassisning mashg'ulotiga bo'lган tashkiliy qismga mos keladi, chunki ular o'yinda juda o'xshash, bolalarda qiziqish uyg'otadi, ijobiy emotsiyonal kayfiyatni ta'minlaydi va aqliy mashqni talab qiladi.

Og'zaki nutqni shakllantirish bo'yicha faol guruhnning ishi (so'z boyligi, grammatika va bog'langan nutq, tilni tahlil qilish va sintez qilish qibiliyatları) logoped tomonidan muvofiqlashtirildi. Jamoa logoped, tarbiyachi va musiqa rahbaridan iborat edi. Logoped va tarbiyachi so'z boyligini to'ldirish, bolalarning mavhum maʼnoga ega so'zlarni tushunishi, bir xil semantik sohadagi so'zlarda harakat qilish qobiliyati, shuningdek, dastur vazifalarini hal qilish jarayonida turli xil kommunikativ faoliyat turlarida so'zlardan foydalanish maqsadlariga erishdilar.

Musiqa rahbari sanab o'tilgan ko'nikmalarni logoped tomonidan tanlangan maxsus topshiriqlar, o'yinlar va mashqlarni mashg'ulotlarga, tadbirlarning stsenariysiga kiritish orqali rivojlantirdi (masalan: kattalar tomonidan boshlangan tematik qatorni to'ldirish; predmetni tavsifiga ko'ra nomlash; bir xil predmetlar guruhiiga umumlashtirilgan so'zlarni tanlash; tugallanmagan jumлага bir yoki ikkita so'zni tanlash; maxsus vazifani bajarish uchun, masalan: "Taklif qilingan rasmlardan nomi "kim?" degan savolga javob beradiganlarni tanla" va hokazo.).

Guruhnning barcha aʼzolarining leksikani shakllantirish yo'nalishidagi ishlari muvofiqlashtirildi, yaʼni bolalar tomonidan eng samarali o'zlashtirish uchun guruhnning barcha aʼzolarining nutq materiallari umumiyl leksik mavzuga muvofiq tanlandi.

Grammatika va bog'langan nutqni shakllantirishdan maqsad - bolalarda so'zlearning to'g'ri grammatik shakllaridan erkin nutqda foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish; vaziyatga mos keladigan va barcha semantik bog'lanishlar to'g'ri ketma-ketlikda tashkil etilgan hikoyalari tuzish. Buning uchun jamoa aʼzolari bolalarning so'zni o'zgartirish, so'z yasash, sintaksis yoki grammatik tuzilish, bog'langan nutq ko'nikmalarini shakllantirdilar.

Logoped dastur vazifalarini hal qilish jarayonida, tarbiyachi - bolalar bilan ishslashning maxsus usullari yordamida belgilangan maqsadga erishdi. Shunday qilib, mashg'ulotlardan bo'sh vaqlarda so'zni o'zgartirish, so'z yasash ko'nikmalarini rivojlantirish va mustahkamlash uchun bolalarga didaktik

savollar berilgan (masalan: “Qanday?” savolga javob beradigan so’zlarni o’ylab toping”, “Nima bilan?” savoliga javob beradigan va ish qurolini bildiradigan so’zni o’ylab toping”, “Tulki, bo’ri, sigirning bolasi qanday ataladi?”), bog’langan nutq va to’g’ri grammatik tuzilish ko’nikmalarini rivojlantirish uchun bolalardan qo’l mehnati mashg’ulotlarida o’z harakatlarini tasvirlashni so’rash mumkin (ganchkorlik, applikatsiya va boshqalar), ya’nni ular nima qilishlari (masalan: “Men jo’jani yasamoqchiman. U sariq bo’ladi...” va hokazo), nima qilayotganlari (masalan: “Men sariq rangli plastilin olaman, undan kichik sharcha yasayman...”), nima qilib bo’lganlari (“Men kichkina jo’jani yasab bo’ldim. U sariq rangda. Uning ko’zları qora va tumshug’i qizil” va hokazo) haqida gapirib berishlari mumkin; tartib lahzalarida harakatlarni bajarish (“Men qo’llarimni yuvaman. Buning uchun kranni ochishim,sovunni olishim, qo’llarimni sovnashim kerak...” va hokazo); boshqa usullardan foydalanib, o’tgan bayram voqealari, ko’rilgan fil’m haqida gapirib berish.

Logoped tomonidan hal qilinadigan dastur vazifalari maktabgacha yoshdagi bolalarda tilni tahlil qilish va sintez qilishning dastlabki ko’nikmalarini shakllantirishni o’z ichiga oladi.

Tarbiyachi va musiqa rahbari ushbu ko’nikmalarni (fonematik tahlil va sintez ko’nikmalari, fonematik tasavvurlar, jumlalarni so’zlarga tahlil qilish qobiliyati, bo’g’inli tahlil va sintez ko’nikmalari) maxsus mashqlar yordamida katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda mustahkamladilar.

Buning uchun tarbiyachi dars boshlanishidan oldin maxsus topshiriqlardan foydalangan: “Ismi [M] tovushi bilan boshlanadigan o’g’il bolalar o’tiradilar; endi ismi [A] tovushi bilan boshlanadigan qizlar o’tiradilar”; “Ismi beshta tovushdan iborat bo’lgan bolalar o’tiradilar” va hokazo; faoliyat turining almashishini nazarda tutadigan dam olish paytlarida, loyihalash, ganchkorlik, rasm chizish bo’yicha mashg’ulotlarda: “Bolalar, biz yasayotgan (chizayotgan, loyihalashtirayotgan) predmetni bildiradigan so’z qaysi tovush bilan boshlanishini aniqlang”; tartib lahzalarida: “Stol ustida yotgan qaysi predmetning nomida [V] tovushi bor” va hokazo; bolalar bilan suhbatda mashg’ulotlardan bo’sh vaqtida: “Bolalar, keyingi haftada qaerga borishimizni toping. Bu so’z [T] tovushi bilan boshlanadi va beshta tovushdan iborat” va hokazo.

Musiqi rahbar tayyorlov guruhining bolalari bilan o’tkaziladigan tadbirlarni o’yin tarzida berilgan didaktik vazifalar bilan bezatgan. Masalan, tayyorlov guruhida o’tkazilgan yangi yil tadbirida Qorbobo berilgan tovush, berilgan miqdordagi tovushlar, bo’g’inlarni o’z ichiga olgan so’zlarni, topishmoqlarni topgani uchun sovg’alar bergen; masalan: “Bu so’z transport turini anglatadi, uchta bo’g’indan iborat va [A] bilan tugaydi”, “Bu so’z yovvoyi hayvonni anglatadi, u beshta tovushdan iborat, so’zning o’rtasida [B] tovushi bor” va hokazo. Bunday mashqlar nafaqat tilni tahlil qilish ko’nikmalarini mustahkamlashga yordam berdi, balki bolalarda mayjud bo’lgan so’z boyligini ham to’ldirdi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). 6-7 yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda tovushni talaffuz qilish ko’nikmalarini mustahkamlab, so’z boyligini kengaytirib, nutqning to’g’ri grammatik tuzilishini, bog’langan nutqni, tilni tahlil qilish va sintez qilishni shakllantirib, mutaxassislar bir vaqtning o’zida bir nechta til muammolarini hal qilish uchun vazifalarni shakllantirishga, mashqlarni tanlashga harakat qilishgan, masalan: “To’rtta so’zdan iborat gap tuz, ulardan biri “qaerga?” savoliga javob beradi, to’rtta tovushdan iborat, ularning oxirgisi [O] tovushi” [Bolalar kinoga borishdi].

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning o’qish ko’nikmalarini o’zlashtirishga tayyorligining zarur shart-sharoitlarini shakllantirish o’yinlar, bolalar bilan har qanday mashg’ulotlarda, tartib lahzalarida, bo’sh vaqtarda yoki uyda foydalanish mumkin bo’lgan o’yinlar, mashqlar jarayonida amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Бабанский Ю.К. Избранные педагогические труды. М.: Педагогика, 1989.
2. Локалова Н.П. Школьная неуспеваемость: причины, психопрофилактика. – СПб.: Питер, 2009. (179) /
3. Ушакова О.С. Программа развития речи детей дошкольного возраста в детском саду. М., 1994.
4. Павлова Л.Н. Раннее детство: развитие речи и мышления. М., 2000.
5. Павлова Л. А. Как формировать навык чтения у младших школьников: практическое пособие / под ред. Н. Н. Светловской. М.: Изд-во АРКТИ, 2007.
6. Турдалиева Ш. Х. Предупреждение нарушений письменной речи у

дошкольников с недоразвитием речи. Boshlang‘ich ta’limda xalqaro tajribalar: yangi avlod darsliklari, milliy dastur va raqamli texnologiyalar integratsiyasi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023-yil, 19-may(383-384)

7. Турдалиева Ш.Х. Развитие навыков чтения - это сложный психофизиологический процесс у детей с тяжелыми речевыми нарушениями дошкольного возраста. Общество и инновации. 4, 8/S (окт. 2023), 124–127.

8. Турдиалиева Ш.Х Развитие начальных навыков чтения у детей с тяжелыми нарушениями речи в дошкольном возрасте., „Мактаб ва хаёт” № 7 (179)2023,(36-38)№